

DUNYO E'TIROF QILGAN OLIM – SHAYX USMONXON ALIMOV SAMARQANDIY ILMUY FAOLIYATI

Nig'matova Nargiza Uyg'un qizi
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalihi 4-kurs talabasi
nematova020400@gmail.com

Anatatsiya

Ushbu maqola Xorun ar-Rashid tashabbusi Bag'dodda ("Bayt ul-Xikma") - ilmiy Markaz-Akademiya tashkil etilib, shakllanishi, unda O'rta Osiyodagi mashhur olim va fozillar to'planganligi ulardan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar faoliyat yuritganligi va oradagi ba'zi uzilishlardan so'ng Sovet davri oxirida olimlarning qayta chiqishi , Usmonxon Alimov va boshqa olimlarning faoliyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xorun ar-Rashid, Bag'dod , O'rta Osiyo, Usmonxon Alimov, Diniy idora , tafsir ilmi , Adbdurashid Bahromov.

Tarixan bilamizki, yurtimiz buyuk ulamolar yurti hisoblanadi. Buning yaqqol misoli sifatida Xorun ar-Rashid tashabbusi bilan Bag'dodda ilmiy Markaz-Akademiya ("Bayt ul-Xikma")-tashkil etilib, unga barcha musulmon o'lkalari, jumladan O'rta Osiyodan ham olim va fozillar to'plangan. Bu markazda Movaraunnahr va Xurosandan kelgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar Bag'dod akademiyasini jahonga mashhur bo'lishida katta hissa qo'shganlar. Movaraunnahrda arab halifaligini hukmronligini o'rnatilishi hamda islam dinining keng yoyilishining ijobiy tomonlaridan biri shuki, Bag'doddagi ilmiy akademiyadan o'rnak olib Xorazmda ham X asrda Ma'mun akademiyasi vujudga keldi va uning a'zolari bo'lmish o'z davrining olimu-donishmandlari o'z ijodlari bilan Movaraunnahrni donishi olamga yoyganlar. Shuningdek o'lkamiz hududidan islam dunyosining eng mo'tabar shaxslari, hadisshunoslari etishib chiqdilarki, ularning nomi Hozirgi kungacha ham dunyoviy, ham tasavvuf ilmining yuqori pog'onalarida turibdi.

Hozirda ham o'zlarinig dunyoga ilm tarqatishi hamda islam dini rivoji va ravnaqi yo'lida xizmat qilib umrlarini shu yo'lda o'tkazgan ulamolarimiz bisyor. Shulardan biri yuksak nomga sazovor bo'lgan, ahli mufassir islam ulamosi Usmonxon Alimov Samarqandiy rahimahulloh hisoblanadi. Shayx Usmonxon Alimov Samarqandiy milodiy 1950-yil 1-yanvarda Samarqand viloyati Ishtihon tumani ziyorilar oilasida tavallud topgan. Shayx Usmonxon Alimov hazratlari dastlabki islam ilmni otalaridan olib, boshlang'ich ta'limni Samarqand viloyati Ishtihon tumanida joylashgan "Alisher Navoiy" nomidagi 57-umumta'lim maktabida olganlar. Umumta'lim maktabni tamomlagach islam diniga bo'lgan muhabbat Usmonxon Samarqandiyni Buxoro tomon yetakladi. Tarixan bilamizki Buxoroyi sharif islam dinining quvvati bo'lib kelgan. 1982-yil Buxoro shahrida joylashgan "Mirarab" madrasasida tahsil olganlar. So'ng madrasani tamomlab

1987 yili Toshkent shahrida joylashgan "Imom Buxoriy" nomli institute (ma'had)ni tamomlagan.

Shayx Usmonxon Samarqandiy o'z faoliyatini xalqqa xizmat qilib ilm tarqatishdan boshladi. 1987-yil Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan "Imom Buxoriy" masjidida imom bo'lib faoliyatini davom ettirdi. Xalq xizmatida bo'lish davomida ilmga bo'lgan qiziqish Shayx

Usmonxon Samarqandiyini Marokash tomon chorladi hamda 1989- yili Marokashda joylashgan “Karaviyin” universitetida tahsil ola boshladi. Marokash shahrida joylashgan bu - “Karaviyin” universiteti nufuzli universitetlardan biri edi. Bu universitetni ham Shayx Usmonxon Samarqandiy namunali darajada ilm bilan tamomladi hamda yana ona shahri Samarqanddagi “Imom Buxoriy” masjidida imom bo‘lib faoliyatini davom ettirdi.

Shayx Usmonxon Samarqandiy 2000-yil yanvar oyidan boshlab Samarqand viloyati bosh imom xatibi lavozimiga tayinlandi. Shayx Usmonxon Samarqandiy olti yil davomida bosh imom xatib lavozimida faoliyat olib bordi. Bu davrda islom dini ravnaqiga sezilarli darajada o‘z hissasini qo‘sldi. Samarqandda joylashgan ko‘plab jome bo‘lmagan masjidlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, xalq xizmatida faoliyatini davom ettirdi.

O‘zbekiston musulmonlar idorasi bosh muftisi Adburashid Bahromov islom dini ravnaqi yo‘lida xizmat olib borayotgan bir vaqtda sog‘ligi yomonlashgani sababli 2006-yilda istefoga chiqish chinarli hol edi. Bunday holda ilmli va har jihatdan keng tafakkurga ega, islom ta’limotini to‘g‘ri targ‘ib qiladigan inson muftiy bo‘lishi shart edi. Chunki bu paytda turli xil g‘arazli niyyatdagi kishilar islom dinini niqob qilib o‘zlarinig manfaatlari yo‘lida foydalananayotgan edi. Nihoyat Islom dini yo‘lida xolis xizmat qilib dinni yoyadigan inson bir ovozdan islom ulamolari tamonidan e’tirof etilgan, Shayx Usmonxon Samarqandiy bo‘ldi.

Shayx Usmonxon Samarqandiy 2006-yildan boshlab O‘zbekiston bosh muftisi lavozimida faoliyat olib bora boshladi. Faoliyati davomida Shayx ko‘plab madrasalar va masjidlar ochilishiga sababchi bo‘ldi.

Kelgusida chuqur bilimli imom-xatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebafo merosi ruhida, sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalashda tayanch bo‘lib xizmat qiladigan, Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi, Farg‘onada – Marg‘inoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida tasavvuf, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida aqida ilmi maktablari tashkil etilgan.

Samarqand viloyatidagi “Hadis” va “Kalom” ilmiy maktablari 2017 yil

8 noyabr kuni, Qashqadaryo viloyatidagi “Aqida” ilmi maktabi 10 noyabr kuni, Mir Arab oliv madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband tasavvuf ilmiy maktabi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi Farg‘ona viloyati vakilligi qoshida Islom huquqi maktabi 13 noyabr kuni rasman ish boshlagan.¹

Bundan tashqari Shayx Usmonxon Samarqandiy faoliyati paytida adashgan oqimlar ta’siriga tushib qolib, Suriyadagi muammolarga aralashib qolgan O‘zbekiston fuqorolarini yurtimizga qaytarishi ham so‘zimizning yorqin dalilidir. Bu haqida Shayx Usmonxon Samarqandiy shunday so‘zlaydi:

Yurtimizni go‘zal diyorlardan qilgan, tinchlik-xotirjamlikni ato etgan Alloh taologa cheksiz hamdu sanolar bo‘lsin. Ezgulik ulashishni muqaddas dinimizning shiori qilib ketgan Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga salavotu durudlar bo‘lsin.

Muhtaram Prezidentimiz adashib, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan, makkorona targ‘ibotu tashviqotlarga uchib yoki buzg‘unchi guruhlarga a’zo bo‘lib, oqibatda hayoti butkul izdan chiqqan turli yoshdagи kishilarga yordam berish haqidagi kuyinib, ular ham shu millatning farzandlari, birimizning ukamiz, birimizning singlimiz ekanini aytar edilar. Yaqinda ana shu so‘zlarning amaldagi ifodasiga barchamiz guvoh bo‘ldik.

Shu yil 30 may kuni muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan muborak Ramazon oyida “Mehr” nomli savobi juda ulug‘ tadbir amalga oshirildi. Tadbir natijasida 156 nafar

¹ <https://abt.uz>

O'zbekiston fuqarosi (ayollar va bolalar)ni Yaqin Sharqdagi urush mojarolari bo'layotgan hududlardan Vatanimizga qaytarishga erishildi.²

Shayx Usmonxon Samarqandiy faoliyati davomida ilm harakatidan to'xtab qolmadi balki ko'lab xalqqa islom dinini yaxshi tanitadigan asarlar, ilmiy maqolalar, kitoblar yozdi. U kishining islom dini tamoyillari asosida jamiyatda o'rni beqiyos bo'gan farzadlar tarbiyasiga alohida urg'u berish kerak bo'lgan bir paytda, o'zning "Oilada farzand tarbiyasi" nimli kitobini chop ettirdi. Bundan tashqari Yigirmadan ortiq kitob va yuzdan ziyod ilmiy-ommabop maqolalar muallifi. "Tafsiri Irfon", "Imom Buxoriy — muhaddislar sulton", "Imom Buxoriy barakoti", "IX-X asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi", "Hazrati Imom", "Rasulullohning muborak vasiyatlari", "Rasululloh mo'jizalari", "So'ragan edingiz" kabi asarlari muallifi hisoblanadi.³

Shayx Usmonxon Samarqandiy faoliyati davomida 2012 yili Diniy idora tarixida ilk bor Islom olami uyushmasi ta'sis majlisining a'zosi hamda Butun dunyo ulamolar kengashi a'zosi etib saylangan. 2019 yil "Dunyoning eng nufuzli 500 musulmoni" ro'yxatidan munosib o'rin egallagan. 10 yildan buyon ushbu ro'yxatdan mustahkam joy olib kelgan.

2020 yil 6 yanvarda 70 yoshni qarshi olishi munosabati bilan "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlangan. Rossiya Federatsiyasi Sverdlovsk viloyati musulmonlari idorasini "Kumush yarim oy" medali, Qirg'iziston musulmonlari idorasining 1-darajali "Ittifoq" medali bilan taqdirlangan. 2019 yil mayida

— muborak ramazon oyida Muftiy hazratlarini AQShga safari davomida "Buyuk muftiy" deya e'zozlashgan.

Hech bir narsa abadiy emas. Barcha narsalarning o'z vaqt soati bor. Chuqur qayg'u bilan tan oliamizki, Shayx Usmonxon Samarqandiy hazratlari

2021-yil 71- yoshida vafot etdi.

Shayx Usmonxon Samarqandiy umri davomida yurt tinchligi, vatan ravnaqi yo'lida, islom dini sofligi va rivoji uchun beqiyos xizmatlar qildi. Har bir olim va ulomolar qilishi kerak bo'lgan ishlarni ortig'i bilan bajarib musulmon dunyosida o'chmas iz qoldigan. Har doim butun ulamolar va olimlar ustozimiz Shayx Usmonxon Samarqandiyni yuksak e'tirof etadi.

ADABIYOTLAR

- [1] Mirtoxirovna, A. M. (2020). The scientific legacy of abu ja'far muhammad ibn jarir ibn yazid ibnkathir ibn ghalib at-Tabari and the importance of Tarikh ar-rusul val-muluk. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 923-925.
- [2] Mirtoxirovna, A. M. (2020). About copies, translations and editions of the work" tarikh ar-rusul valmuluk. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(4), 754-758.
- [3] Mirtoxirovna, A. M. (2020). About the persian translation of" tarikh ar-rusul val muluk. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 416-419.
- [4] Mirtoxirovna, A. M. (2022). FUNDAMENTAL HISTORICAL EVENTS IN THE BOOK "TARIKH AR-RUSUL WA-L-MULUK" BY IBN AL-JARIR AL-TABARI. *International Journal of Philosophical studies and social sciences*, 2(2), 172-175.
- [5] Mirtoxirovna, A. M. Muhammad ibn Jarir at-Tabari is a great medieval historian. Scientific progesst scientific journal.-Tashkent: Volume 2/Issue 1. 2021. ISSN: 2181-1601. № V сон.—Б. 1817-1822.

² "Jabrdiydaga ko'maklashish, xatokorni kechirish buyuk fazilatdir" maqola. Tolibjon Nizomov

³ <https://muslim.uz>

- [6] Mirtoxirovna, A. M. (2022). The Role of " Tarikhi Tabari" In the Formation of Works on Islamic History. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 509-512.
- [7] Mirtoxirovna, A. M. (2022, February). THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF ISLAMIC HISTORICAL FEATURES OF WORKS WRITTEN. In *E Conference Zone* (Vol. 1, pp. 14-16).
- [8] Muxabbatxon, A. THE SCIENTIFIC LEGACY OF ABU JA'FAR MUHAMMAD IBN JARIR TABARI. *The Light of Islam*, 2022(1), 33-39.
- [9] Агзамова, М. М. (2021). МУҲАММАД ИБН ЖАРИР АТ-ТАБАРИЙ ЎРТА АСР БУЮК МУАРРИХИ. *Scientific progress*, 2(1), 1817-1822.
- [10] Makhsudjonovna, T. N. (2022). Coverage of the Activities of the Qalandar in the Sources and Literature. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 797-803.
- [11] Tuychieva, N. M. (2021). History of ghalandarieh tariqah in central Asia. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(6), 314-320.
- [12] Tuychieva, N. (2020). THE CONCEPT OF MARIFAT IN SUFISM. *The Light of Islam*, 2020(4), 13-20.
- [13] Tuychieva, N. (2019). THE STUDY OF IN THE WEST AND THE SCHOOLS OF SUFIZM. *The Light of Islam*, 2019(4), 8.
- [14] Rahimjonov, D. (2019). The importance of social rehabilitation of people who have fallen under the influence of extremist ideas in the process of globalization. *The Light of Islam*, 2019(1), 12.
- [15] Rakhimdjanov, D. A. (2021). MAN IS NOT BORN A FANATIC. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 187-191.
- [16] Rahimjonov, D. (2021). THE ROLE OF EDUCATION IN PROTECTING YOUTH FROM DESTRUCTIVE IDEAS. *The Light of Islam*, 2021(1), 26-34.
- [17] Rakhimdjanov, D. A., & Akhmedov, H. A. (2020). Protecting youth from the influence of extremist ideas and social rehabilitation. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2805-2807.
- [18] Rakhimdjanov, D. A. (2022). Abu Hafs Nasafi and Science of Hadith. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 399-402.
- [19] Karimov, M. (2021). ABUL FAZL AR-ROZIY. HADIS VA QIROAT OLIMI. *Scientific progress*, 2(3), 240-242.
- [20] Karimov, M. (2021). THE CONCEPT OF TOLERANCE IN ISLAM. *InterConf*.
- [21] Karimov, M. B. O. G. L. (2021). ABUL MU'IN AN-NASAFIYNING MOTURIDIYA TA'LIMOTIDAGI O 'RNI. *Scientific progress*, 2(3), 357-360.
- [22] Karimov, M. B. O. G. L. (2021). ABUL BARAKOT AN-NASAFIYNING MOTURIDIYA TA'LIMOTIDAGI O 'RNI. *Scientific progress*, 2(3), 353-356.
- [23] Рахимова, Г. Ш. (2022). Креативный метод преподавания "Учебная стопка" для студентов медицинских институтов и оценка эффективности его использования. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 56-61.
- [24] Rakhimova, G. S., & Kadirova, L. V. (2022). THE INTERACTIVE USAGE OF METHODS TO ASSESS THE LEVEL OF ASSIMILATION OF THE MATERIAL STUDIED IN PATHOLOGICAL PHYSIOLOGY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 513-518.
- [25] Rakhimova, G. S., & Kadirova, L. V. (2022). THE USE OF INTERACTIVE METHODS TO ASSESS THE LEVEL OF ASSIMILATION OF THE MATERIAL STUDIED IN PATHOLOGICAL PHYSIOLOGY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 463-469.

- [26] Shamsievna, R. G. (2022). Modern Aspects of Studying the Features of Morphofunctional Characteristics of Testes Under Various Factor Influences. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 279-286.
- [27] Kuziev, A. U., Alikulov, S. R., Muratov, A. X., & Komilov, A. L. (2019). Statement of Optimization Vehicle Routing Problems on Transport Network. International Journal of Advanced Research in Science. *Engineering and Technology*, 6(12).
- [28] Kuziev, A. U., & Muratov, A. K. (2021). Application Of Logistical Principles In The Development Of Directions In The Region. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 143-149.
- [29] Kuziev, A. U., & Muratov, A. X. (2021). Improving the method of delivery of construction cargo in autotransport. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 207-216.
- [30] Kuziev, A. U., Muratov, A. K., & Kurbonov, S. S. (2020). DEVELOPMENT AND EFFECTIVE USE OF REGIONAL MULTIMODAL TRANSPORT NETWORKS OF TRANSPORTATION. *Theoretical & Applied Science*, (5), 550-555.
- [31] Kuziev, A. U., & Muratov, A. K. (2021). Application Of Logistical Principles In The Development Of Directions In The Region. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 143-149.